

DEMOGRAFIK JARAYONLAR EVOLYUSIYASIGA TURLI FALSAFIY YO'NALISHLARNING QARASHLARI

Kurbonova Muxabbat Avazovna

ADTI «Ijtimoiy gumanitar fanlar» kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17840726>

Annotatsiya: Ushbu maqolada demografik jarayonlar evolyutsiyasiga turli falsafiy yo'nalishlar tomonidan berilgan baholar tizimli tahlil qilinadi. Qadimgi Sharq va Antik falsafada aholining ko'payishi va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik, O'rta asr diniy tafakkurida demografiya va ilohiy tartib munosabatlari, Uyg'onish davri faylasuflarida aholi o'sishining iqtisodiy hamda siyosiy omillar bilan aloqadorligi yoritiladi. Shuningdek, klassik maltuzianizmning demografik nazariyadagi o'rni va unga bildirilgan tanqidiy qarashlar, XIX–XX asrlardagi pozitivistik va globalistik yondashuvlar orqali demografik jarayonlarning ilmiy falsafiy talqinlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: demografik jarayonlar, falsafiy yondashuvlar, evolyutsiya, aholining ko'payishi.

KIRISH

Demografik jarayonlar — insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzviy tarkibiy qismi bo'lib, ular jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy holatini yoritib beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Aholi sonining o'sishi, migratsion oqimlari, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi, urbanizatsiya jarayonlari va insonning biologik, psixologik, axloqiy hayot tarzidagi o'zgarishlar falsafiy mushohadani talab qiladigan dolzarb mavzular sirasiga kiradi. Turli davrlarda shakllangan falsafiy maktablar demografik jarayonlarning kelib chiqishi, ularning tabiati va taqdiri borasida turlicha qarashlarni ilgari surgan. Bu qarashlar insoniyatning o'ziga, jamiyatga, tabiatga va mavjudlikning umumiy ma'nosiga munosabatini aks ettiradi [1].

ASOSIY QISM

Demografik jarayonlarga oid dastlabki falsafiy qarashlar Misr, Bobil, Xitoy va Hindiston kabi qadimgi sivilizatsiyalarda shakllangan. Sharq mutafakkirlari aholining ko'payishi davlatning kuchi va barqarorligi bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlagan. Xitoyda Konfutsiy aholining ko'payishini ijtimoiy uyg'unlikning muhim omili sifatida ko'rsa, Lao Szy aholi sonining haddan ziyod ortishini tabiat bilan uyg'unlikning izdan chiqishi deb baholagan. Hind falsafasida esa karma va drama konsepsiyalari orqali avlodlarning davomiyligi insonning ruhiy kamoloti bilan bog'lab talqin qilingan.

Antik yunon faylasuflari demografik jarayonlarni yanada tizimli tahlil qilgan. Aflotun ideal davlatda aholining soni qat'iy me'yorlarda bo'lishi kerakligini, ortiqcha ko'payish ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishini ta'kidlagan. Aristotel esa aholining ko'payishini davlatni boshqarishning murakkablashuvi bilan bog'lagan. Stoiklar tabiat qonunlari ustuvorligini ilgari surib, aholining tabiiy o'sishini olamning umumiy uyg'unlik tizimi bilan izohlashgan [2].

O'rta asrlarda demografik jarayonlar masalasi ko'proq teologik qarashlar bilan izohlangan. Islom falsafasi oila va naslning asrashni, avlodlar davomiyligini ijtimoiy barqarorlikning asosiy sharti deb bilgan. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino jamiyatning rivoji uchun oila instituti va uning sog'lom demografik tarkibini zarur deb ko'rgan. Xristian teologiyasida esa

tugʻilish va oʻlim «ilohiy irodaning bir qismi» deb baholanib, aholining koʻpayishi ibodat va maʼnaviy kamolot bilan bogʻlangan.

XVI–XVII asrlarda Yevropa madaniyatida inson, uning qobiliyatlari va ijtimoiy roli markaziy mavzuga aylandi. Tomas Gobbs demografik jarayonlarni davlat kuchi va harbiy salohiyat bilan bogʻladi. Jon Lokk esa koʻpayishning iqtisodiy asoslarini, mulkchilik va erkin mehnatning demografiyaga taʼsirini tahlil qildi. Keyinchalik D. Yum va A. Smit aholining soni ishlab chiqarish kuchlari rivoji bilan uzviy bogʻliq boʻlishini taʼkidlab, demografik jarayonlarni iqtisodiy qonuniyatlar bilan izohladi.

Demografik jarayonlar evolyutsiyasini oʻrganish tarixida eng keskin nazariyalardan biri Tomas Maltusning «Aholi tamoyili» haqidagi gʻoyasidir. U aholining haddan ortiq koʻpayishi ocharchilik, kasalliklar va ijtimoiy konfliktlarga sabab boʻlishini taʼkidlab, demografiyani qatʼiy chegaralash zarurligini ilgari suradi. Maʼlum vaqt oʻtib, uning gʻoyalari tanqidga uchradi: Karl Marks aholining koʻpayishi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan chambarchas bogʻliq, deb taʼkidlab, Maltusni abstrakt biologizmga aybladi.

Oʻninchi–oʻn toʻqqizinchi asrlarda statistik tahlil usullarining rivoji demografiyani ilmiy fan sifatida shakllantirdi. Ogust Kont demografik jarayonlarni jamiyat taraqqiyotining «ijtimoiy dinamika» qismi sifatida tahlil qarshi, aholining koʻpayish surʼati ijtimoiy taraqqiyot bosqichi bilan bogʻliqligini eʼtirof etdi. Bu davrda demografiyaning empirik metodlari shakllandi, tugʻilish, oʻlim, nikoh va migratsion statistikasi ilmiy asosda oʻrganila boshlandi.

XX asrda demografik jarayonlar global miqyosda tahlil qilina boshlandi. Ekzistensialistlar (Sartre, Kamyu) aholi koʻpayishi inson hayotining maʼno, erkinlik va tanlov masalalari bilan bogʻliq ekanini taʼkidlagan. Neo-maltuzianizm esa resurslar cheklangani sharoitida aholining haddan tashqari koʻpayishi ekologik inqirozga olib kelishi mumkinligini qayta oʻrtaga chiqardi.

Ushbu davrda «aholi portlashi», migratsiya toʻlqinlari, iqtisodiy tengsizlik, ekologik muammolar, urbanizatsiya, yadro xavfsizligi kabi omillar demografik jarayonlar tahlilining asosiy yoʻnalishlariga aylandi.

XULOSA VA MUNOZARA

Demografik jarayonlarga turli falsafiy maktablar tomonidan berilgan baholar insoniyat rivojining turli bosqichlarida aholi sonining oʻzgarishi jamiyat hayotiga qanchalik kuchli taʼsir koʻrsatganini tasdiqlaydi. Qadimgi Sharq mutafakkirlari demografiyani tabiat bilan uygʻunlikda koʻrgan boʻlsa, Antik faylasuflar uni davlat boshqaruvi bilan bogʻlagan, Oʻrta asr teologiyasi esa demografiyani ilohiy tartibning bir qismi sifatida talqin qilgan. Yangi davr va zamonaviy falsafiy yondashuvlarda esa demografiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, global ekologik muammolar, migratsiya jarayonlari, madaniyatlararo munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq jarayon sifatida koʻriladi.

Demografik jarayonlarni evolyutsion-falsafiy tahlil qilish bugungi kunda ham ahamiyatini yoʻqotmagan. Chunki insoniyatning kelajak taqdiri aholining sifat va miqdor koʻrsatkichlaridagi oʻzgarishlar bilan bevosita bogʻliq. Shu sababli demografik jarayonlarni har tomonlama chuqur falsafiy tahlil qilish — zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim ilmiy vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Мальтус Т. Опыт о законе народонаселения. — Москва: Республика, 1993. — 256 с.
2. Аристотель. Политика. — Москва: Мысль, 1997. — 408 с.

3. Конфуций. Лунь юй (Беседы и суждения). — Пекин: Народное издательство, 2005. — 320 с.
4. Ибн Сина Абу Али. Канон врачебной науки. — Ташкент: Фан, 1996. — 512 с.
5. Маркс К., Энгельс Ф. Немецкая идеология. — Москва: Политиздат, 1988. — 606 с.